

VIBE CODING PRO

AI bilan noldan boshlab web-ilova yaratish kursi

AI bilan kod yozishni emas, AI bilan mahsulot yaratishni o'rganing.

Modullar	15 ta
Promptlar	5 ta
Final project	4 variant
Asosiy natija	AI bilan real web-ilova yaratish va uni xizmatga aylantirish

Kursdan keyin nimalarni bilasiz?

- AI bilan to'g'ri gaplashish
- Yaxshi prompt yozish
- G'oyani texnik topshiriqqa aylantirish
- Sayt dizayni, frontend, backend va database rejasini tuzish
- Git bilan versiyalash va xavfsiz deploy
- AI natijasini baholash va xavfsizlikni tekshirish
- Mijozga xizmat paketlarini tayyorlash

Qo'lingizda nima qoladi?

idea.md	Loyiha g'oyasi, auditoriya, muammo va MVP doirasi.
tz.md	Texnik topshiriq, rollar, sahifalar va oqimlar.
schema.sql	Database modeli va bog'lanishlar.
Live demo URL	Internetga chiqqan real loyiha.
GitHub portfolio	Commitlar, branchlar va PR bilan ishlangan repo.
proposal.pdf	Mijozga yuborishga tayyor taklif paketi.

15 modul yo‘l xaritasi

01. Vibe Coding nima?

AI bilan dasturlash qanday ishlashini va insonning yangi rolini tushunasiz.

Asosiy g‘oya	Kodni AI yozishi mumkin, lekin nima yozishni inson tushuntiradi.
Amaliy vazifa	Bitta loyiha g‘oyasini yozing: kim uchun, qanday muammo va qanday yechim?
Artifakt	idea.md — 1 sahifa loyiha g‘oyasi (auditoriya, muammo, yechim, MVP doirasi).

Self-check

- Vibe Coding klassik dasturlashdan nimasi bilan farq qiladi?
- AI bergan kodni qachon qabul qilish, qachon rad etish kerak?
- O‘z loyihangizning 1 jumlati maqsadini yozish tayyormisiz?

02. AI bilan to‘g‘ri gaplashish

Yaxshi prompt yozish va nega avval reja so‘rash kerakligini o‘rganasiz. Modul oxirida birinchi “quick win” loyiha.

Asosiy g‘oya	AI siz o‘ylagan narsani emas, siz yozgan narsani tushunadi.
Amaliy vazifa	O‘z loyihangiz uchun sifatli prompt yozing va AI bilan 1 sahifalik landing yasab ko‘ring.
Artifakt	prompts.md (3 ta prompt namunasi) + ishlayotgan 1 sahifalik landing link (Replit/Vercel).

Self-check

- Yaxshi promptning 4 ta elementini sanab bera olasizmi?
- Nega avval reja, keyin kod so‘rash kerakligini tushuntira olasizmi?
- Bir vazifa uchun 2 xil prompt yozib, qaysi biri yaxshiroq ekanini bilasizmi?

03. G‘oyani texnik topshiriqqa aylantirish

Noaniq g‘oyani aniq TT ga aylantirishni o‘rganasiz.

Asosiy g‘oya	Texnik topshiriq — loyiha xaritasi.
Amaliy vazifa	Tanlagan loyihangiz uchun 1–2 betlik TT yozing.
Artifakt	tz.md — to‘liq TT: maqsad, rollar, sahifalar, asosiy oqimlar, xato holatlari.

Self-check

- TT da kamida 5 ta foydalanuvchi oqimini ko‘rsata olasizmi?
- Har rol uchun ruxsatlar aniqmi?
- Loyiha doirasidan tashqarida nima qolayotganini yoza olasizmi?

04. Database — ma‘lumotdan boshlash

Dizayndan oldin ma‘lumotlarni saqlash va jadvallarni bog‘lashni o‘rganasiz.

Asosiy g‘oya	Database — dasturning xotirasi. Loyiha aynan undan boshlanadi.
---------------------	--

Amaliy vazifa	Kamida 4 ta jadval va ularning bog'lanishini yozing.
Artifakt	schema.md yoki schema.sql — ER diagramma + 4+ jadval ta'rifi.

Self-check

- Asosiy entitylar va ularning bog'lanishini chiza olasizmi?
- Qaysi maydon nullable, qaysi unique bo'lishini ayta olasizmi?
- Foydalanuvchi o'chirilganda nima bo'lishini bilasizmi (cascade/soft delete)?

05. AI bilan sayt dizayni yaratish

DB sxemasi tayyor — endi “chiroyli dizayn”ni konkret talabga aylantirasiz.

Asosiy g'oya	Yaxshi dizayn foydalanuvchiga nima qilishni darrov ko'rsatadi.
Amaliy vazifa	3 ta sahifa uchun dizayn tavsifi yarating.
Artifakt	design.md + Figma/screenshot linklari — 3 sahifa wireframe yoki AI generatsiyalangan dizayn.

Self-check

- Har sahifaning asosiy CTA si nima ekanini bilasizmi?
- Dizayn DB ma'lumotlariga mosmi (kerakli maydonlar ko'rsatilgan)?
- Mobil layoutda 3 ta eng muhim element nima?

06. Frontend nima?

Foydalanuvchi ko'radigan qismni AI bilan qanday qurishni bilib olasiz.

Asosiy g'oya	Frontend — dasturning yuzi.
Amaliy vazifa	Admin dashboard sahifasini AI bilan yozdiring va brauzerda ishlatib ko'ring.
Artifakt	Frontend repo — kamida 2 sahifa ishlaydigan kod + screenshot.

Self-check

- Komponentni qachon ajratish kerakligini bilasizmi?
- Responsive bo'lmaganni qanday tekshirasiz?
- AI yozgan kodning qaysi qismini o'zingiz tushunasiz?

07. Backend nima?

Ichki logika, API va buyurtma oqimini tushunasiz.

Asosiy g'oya	Backend — dasturning miyasi.
Amaliy vazifa	User action → API → database → response oqimini yozing va ishlatib.
Artifakt	Backend repo — kamida 3 ta endpoint ishlaydigan kod + Postman/Thunder Client screenshot.

Self-check

- Endpoint sxemasini (method, path, request, response) yoza olasizmi?
- Validation qayerda — frontend yoki backend — bo'lishini bilasizmi?

- Database tranzaksiyasi qachon kerakligini ayta olasizmi?

08. Git va versiyalash

AI kodni buzganida orqaga qaytish va parallel ishlashni o'rganasiz.

Asosiy g'oya	Git bo'lmasa, vibe coding — Save tugmasi yo'q o'yin.
Amaliy vazifa	Loyihangizni GitHub'ga yuklang, 1 ta feature branch yarating va PR ochib ko'ring.
Artifakt	GitHub repo URL — kamida 5 ta commit, 1 branch, 1 PR.

Self-check

- Oxirgi 3 commitni qanday qaytarishni bilasizmi?
- AI kodni buzdi — qaysi commit'ga qaytish kerakligini topa olasizmi?
- .gitignore qanday fayllarni o'chirishi kerakligini ayta olasizmi?

09. AI bilan test qilish

Mahsulotni tekshirish uchun test ro'yxati tuzasiz — debugdan oldin.

Asosiy g'oya	Tekshirilmagan kod — tayyor mahsulot emas.
Amaliy vazifa	Eng muhim funksiya uchun 6 ta test yozing va bajaring.
Artifakt	tests.md yoki test fayli — 6+ test case + natijalar jadvali (pass/fail).

Self-check

- Happy path va edge case farqini misol bilan ayta olasizmi?
- Test qachon AI ga ishonib bo'lmaydigan joyni ko'rsatadi?
- Manual va avtomatik test qachon kerakligini bilasizmi?

10. Xatolarni topish va tuzatish

AI yordamida debuggingni tartibli qilishni o'rganasiz.

Asosiy g'oya	Avval tahlil, keyin kod o'zgarishi.
Amaliy vazifa	4 xil xato holati uchun debug prompt tayyorlang va loyihangizdagi xatoni tuzating.
Artifakt	debug-log.md — 3+ haqiqiy xato, sabab, AI yechimi va tasdiqlangan fix.

Self-check

- Xato matnidan asl sababga qanday yetish mumkinligini bilasizmi?
- AI takror-takror noto'g'ri yo'l ko'rsatsa nima qilasiz?
- Frontend xatosini backend xatosidan ajrata olasizmi?

11. AI natijasini baholash

AI qachon ishonchli, qachon o'ylab topadi — buni ajratishni o'rganasiz.

Asosiy g'oya	AI yozgan kod ishlasa ham, to'g'ri bo'lmasligi mumkin.
Amaliy vazifa	AI bergan 3 ta funktsiyani diqqat bilan code review qiling: hallucination, xavfsizlik va samaradorlik nuqtai nazaridan.

Artifakt	review.md — 3 funksiya, har biriga 5 nuqtali yozma baho + tuzatishlar.
-----------------	--

Self-check

- AI “hallucinate” qilganini qanday belgilarga qarab aniqlaysiz?
- AI yechimi “eng oddiy” emas — qachon refactor talab qilasiz?
- AI bergan kutubxonani ishlatishdan oldin qaysi 3 narsani tekshirasiz?

12. Xavfsizlik va chegaralar

AI bilan yozilgan kodni mijozga topshirishdan oldingi minimal xavfsizlik darajasi.

Asosiy g'oya	Ishlaydigan kod ≠ xavfsiz kod.
Amaliy vazifa	Loyihangizning xavfsizlik checklistini yuriting va kamida 3 ta tuzatish kiriting.
Artifakt	security-checklist.md — 10 nuqtali tekshiruv + topilgan va tuzatilgan muammolar.

Self-check

- OWASP Top 10 dan kamida 3 tasini ayta olasizmi?
- Auth tokeni qayerda saqlanishi kerakligini bilasizmi?
- AI bergan SQL so'rovida injection xavfini ko'ra olasizmi?

13. Deploy

Loyihani internetga chiqarishdan oldingi nazoratni o'rganasiz.

Asosiy g'oya	Deploy — faqat build emas, ishlaydigan mahsulot.
Amaliy vazifa	Deploy checklistni belgilab chiqing va loyihani Vercel/Railway'ga chiqaring.
Artifakt	deploy.md + production URL — real qurilmada test screenshot bilan.

Self-check

- Production va development env farqini bilasizmi?
- Deploy buzilsa, qanday rollback qilasiz?
- Domain, SSL va monitoring sozlanganmi?

14. Mijozga loyiha qilish

O'rganganingizni xizmatga aylantirasiz.

Asosiy g'oya	Kod emas, natija soting.
Amaliy vazifa	Bir biznes turi uchun 3 ta xizmat paketi yozing va 1 ta taklif (proposal) tayyorlang.
Artifakt	proposal.pdf — 3 paket + qiymat asosi + namuna chizmalar.

Self-check

- Mijoz qaysi paketni tanlasa, sizga ham foydali ekanini bilasizmi?
- Paketdan tashqari ish (out of scope) ni qanday boshqarasiz?
- To'lov sharti va deadline qanday belgilanishini ayta olasizmi?

15. Yakuniy loyiha

Butun VIBE formulasini bitta real mahsulotga yig'asiz.

Asosiy g'oya	Kichik, lekin tugallangan loyiha eng yaxshi portfolio.
Amaliy vazifa	Final project rejangizni tayyorlang va to'liq mahsulotni deploy qiling.
Artifakt	Live demo URL + GitHub repo + 1 daqiqali video walkthrough.

Self-check

- Mahsulotingizni 30 soniyada tushuntira olasizmi?
- Birinchi 3 mijoz uchun marketing rejangiz bormi?
- Loyihaning keyingi 2 funksiyasi qanday bo'lishini bilasizmi?

Promptlar kutubxonasi

Loyiha rejasini tuzish

Men quyidagi loyiha yaratmoqchiman: [LOYIHA NOMI] Bu loyiha kim uchun: [AUDITORIYA] Muammo: [MUAMMO] Menga: 1. Loyiha maqsadi 2. Asosiy funksiyalar 3. Sahifalar ro'yxati 4. Database jadvallari 5. Frontend qismi 6. Backend qismi 7. Ishni bosqichma-bosqich bajarish rejasi tuzib ber. Kod yozma, avval reja ber.

Dizayn prompti

Sen tajribali UI/UX dizayner sifatida ishlaysan. Men quyidagi loyiha uchun dizayn yaratmoqchiman: [LOYIHA TAVSIFI] Dizayn: sodda zamonaviy mobilga mos toza foydalanuvchi uchun tushunarli bo'lsin. Menga ranglar, sahifa strukturasi, tugmalar, cardlar, forma ko'rinishi va mobil dizayn bo'yicha tavsiya ber.

Kod yozdirish prompti

Endi yuqoridagi reja asosida kod yoz. Talablar: kod tartibli bo'lsin komponentlarga bo'lingan bo'lsin mobilga mos bo'lsin xatolik holatlari hisobga olinsin izohlar bilan tushuntir Avval qaysi fayllar yaratilishini ayt. Keyin kodni yoz.

Xatoni tuzatish prompti

Menda quyidagi xato chiqdi: [XATO MATNI] Men qilmoqchi bo'lgan ish: [ISH TAVSIFI] Loyiha stacki: [MASALAN: React, Next.js, Supabase] Iltimos: 1. Xato nimani anglatadi? 2. Nima sabab bo'lishi mumkin? 3. Qaysi fayllarni tekshirish kerak? 4. Eng xavfsiz yechim nima? 5. Kodni qanday tuzatish kerak?

Test prompti

Sen QA tester sifatida ishlaysan. Quyidagi funksiyani test qil: [FUNKSIYA NOMI] Menga: 1. Oddiy holat testi 2. Xato input testi 3. Bo'sh input testi 4. Mobil qurilma testi 5. Admin huquqi testi 6. Kutilgan natija ro'yxatini tuzib ber.

Final project variantlari

- Online buyurtma tizimi
- Mini CRM
- Salon booking tizimi
- AI Agency Client Portal

Mijozga taklif qilinadigan xizmat paketlari

Bu bo'lim kurs narxlari emas. Siz kursdan keyin mijozlarga taklif qila oladigan xizmat paketlari namunasidir.

Start	Oddiy sayt: Bosh sahifa, Xizmatlar, Aloqa formasi, Telegramga xabar
Business	Buyurtma tizimi: Sayt, Mahsulotlar, Admin panel, Database
Pro	To'liq avtomatlashtirish: CRM, AI chatbot, Dashboard, Analytics